
O'zini-o'zi band qilmoqchi bo'lgan xotin-qizlar qo'llab-quvvatlanmoqda

Rishton tumanida "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bandligini ta'minlash va qo'shimcha daromad manbalarini yaratib berish choralari ko'rilmoqda. Mustaqilligimizning 31 yillik bayrami arafasida "Ayollar daftari"ning birinchi toifasidagi ishsiz bo'lgan xotin-qizlarning 40 nafariga subsidiya mablag'lari hisobidan zamonaviy tikuv tikuv mashinalari topshirildi. Bu orqali 40 nafar xotin-qizning bandligi ta'minlandi.

Tumanimizda yashovchi bichish-tikishning hadisini olgan, ammo shu kungacha ro'zg'oridan orttirib tikuv mashinasini xarid qila olmayotgan xotin-qizlar uchun bu haqiqiy sovg'a bo'ldi. Tantanli marosimda tuman hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i M. Bekmirzaeva, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tuman bo'limi boshlig'i o'rinbosari T. Abdurahmonov hamda keng jamoatchilik ishtirok etishdi. Tumanda o'zini-o'zi band qilish niyatida bo'lgan xotin-qizlar tuman hokimligi tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlab kelinmoqda.

2022-07-01 14:17:47